


Ishlab chiqarishga joriy etishga tayyor ilmiy va innovatsion ishlanmalarning ko'rgazmasi tashkil etildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qaroriga muvofiq Materialshunoslik institutida FA ilmiy-tadqiqot muassasalarining ishlab chiqarishga joriy etishga tayyor yuqori texnologik ilmiy va innovatsion ishlanmalarning ko'rgazmasi tashkil etildi.



Ko'rgazmada Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlarining 40 dan ortiq energiya va resurstejamkor ishlanmalari, mahalliy xom-ashyodan ishlab chiqilib import o'rnini qoplashga va eksportga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalari namoyish etildi.

Ko'rgazmaning asosiy maqsadi Toshkent viloyati tadbirkorlari, fermerlari va ishlab chiqaruvchilarini olimlarimizning ilmiy tadqiqotlari natijalari bilan yaqindan tanishtirish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bir qatorda qishloq joylarda tez samara beradigan, yangi ish joylarini tashkil etish, eng muhimi, ortiqcha energiya sarfsiz mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar bilan tanishtirish.

Jumladan, ko'rgazmada, tashqi energiya sarfsiz issiqxonalar haroratini mo'tadillashtiruvchi nanokompozit plenka (yozda sovutadi, qishda isitadi), qishloq xo'jalik mahsulotlarini hosildorligini oshirish (35-50%gacha) usullari, toza ichimlik suvi olish, radiofarmmahsulotlar, mujassamlashgan quyosh nuridan xo'jalik ishlari va ishlab chiqarishda samarali foydalanish bo'yicha ishlanmalar alohida e'tirof etildi.



Shuningdek, O'zbekiston uchun yangi ilmiy yo'nalishlar - vodorod energetikasi texnologiyalari, karbon tolalarini ishlab chiqarish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi uchun "sovuq plazma" texnologiyalarini ishlab chiqishga mahalliy ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar taklif qilindi.